

*2024- yil yanvar-avgust oyi  
uchun dastlabki ma'lumot*

# **NAMANGAN VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI**

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi:  
(69) 227-84-95*



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Namangan viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 853,2 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan -50,8 mln. AQSH dollariga yoki 5,6 % ga kamaydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)

### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **853,1** -5,6 %

(2023- y.: **903,9**)



Saldo

2024- y.: **-69,8** (2023- y.: **-165,1**)




### Eksport

2024- y.: **391,7** +6,0 %

(2023- y.: **369,4**)

TSA'dagi ulushi, % da



### Import

2024- y.: **461,5** -13,7 %

(2023- y.: **534,5**)













**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 391,7 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 6,0 % ga ko‘paydi) va import hajmi 461,5 mln. AQSH dollariga (13,7 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -69,8 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### NAMANGAN VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)

<p><b>Rossiya</b></p> <p><b>TSA – 292,2</b></p> <p>Eksport: 241,3 Import: 50,9</p> <p> 34,2 %</p>	<p><b>XXR</b></p> <p><b>TSA – 197,5</b></p> <p>Eksport: 25,5 Import: 172,0</p> <p> 23,2 %</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p><b>TSA – 48,4</b></p> <p>Eksport: 13,1 Import: 35,3</p> <p> 5,7 %</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p><b>TSA – 42,7</b></p> <p>Eksport: 14,4 Import: 28,3</p> <p> 5,0 %</p>	<p><b>Hindiston</b></p> <p><b>TSA – 47,1</b></p> <p>Eksport: 0,1 Import: 47,0</p> <p> 5,5 %</p>
<p><b>Qirg‘iz Respublikasi</b></p> <p><b>TSA – 57,3</b></p> <p>Eksport: 37,9 Import: 19,4</p> <p> 6,7 %</p>	<p><b>Germaniya</b></p> <p><b>TSA – 29,1</b></p> <p>Eksport: 9,2 Import: 19,9</p> <p> 3,4 %</p>	<p><b>Belarusiya</b></p> <p><b>TSA – 19,7</b></p> <p>Eksport: 3,5 Import: 16,1</p> <p> 2,3%</p>	<p><b>Fransiya</b></p> <p><b>TSA – 7,4</b></p> <p>Eksport: 0,1 Import: 7,3</p> <p> 0,9 %</p>	<p><b>Koreya Respublikasi</b></p> <p><b>TSA – 14,2</b></p> <p>Eksport: 0,2 Import: 14,0</p> <p> 1,7 %</p>

Namangan viloyati jahonning 75 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya (34,2 %), XXRda (23,2 %), Turkiyada (5,7 %), Qozog‘istonda (5,0 %) va Hindistonda (5,5 %) qayd etilgan.



## NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
<b>Rossiya</b>	<b>268,3</b>	<b>268,1</b>	<b>292,2</b>

<i>Eksport</i>	193,7	194,7	241,3
<i>Import</i>	74,5	73,4	50,9



<b>XXR</b>	<b>195,2</b>	<b>200,6</b>	<b>197,5</b>
------------	--------------	--------------	--------------

<i>Eksport</i>	26,3	25,8	25,5
<i>Import</i>	168,9	174,9	172,0



<b>Turkiya</b>	<b>67,5</b>	<b>85,0</b>	<b>48,4</b>
----------------	-------------	-------------	-------------

<i>Eksport</i>	34,4	39,2	13,1
<i>Import</i>	33,1	45,7	35,4



<b>Hindiston</b>	<b>7,8</b>	<b>15,3</b>	<b>47,1</b>
------------------	------------	-------------	-------------

<i>Eksport</i>	0,4	0,3	0,1
<i>Import</i>	7,4	15,0	47,0



<b>Qozog'iston</b>	<b>62,2</b>	<b>72,1</b>	<b>42,7</b>
--------------------	-------------	-------------	-------------

<i>Eksport</i>	22,0	30,7	14,4
<i>Import</i>	40,2	41,4	28,3



<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>55,8</b>	<b>25,0</b>	<b>57,3</b>
-----------------------------	-------------	-------------	-------------

<i>Eksport</i>	44,9	15,8	37,9
<i>Import</i>	10,8	9,2	19,4



<b>Germaniya</b>	<b>20,4</b>	<b>35,3</b>	<b>29,1</b>
------------------	-------------	-------------	-------------

<i>Eksport</i>	6,2	6,5	9,2
<i>Import</i>	14,3	28,8	19,9



<b>Belarus</b>	<b>19,1</b>	<b>26,9</b>	<b>19,7</b>
----------------	-------------	-------------	-------------

<i>Eksport</i>	1,6	3,1	3,5
<i>Import</i>	17,5	23,8	16,1













<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>13,1</b>	<b>20,0</b>	<b>14,2</b>
----------------------------	-------------	-------------	-------------

<i>Eksport</i>	1,5	4,1	0,2
<i>Import</i>	11,6	15,8	14,0



<b>Polsha</b>	<b>14,1</b>	<b>25,0</b>	<b>8,0</b>
---------------	-------------	-------------	------------

<i>Eksport</i>	6,7	9,5	5,3
<i>Import</i>	7,4	15,4	2,6

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	<b>Fransiya</b>	<b>6,5</b>	<b>7,5</b>	<b>7,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,1	0,2	0,1
	<i>Import</i>	6,4	7,4	7,3
	<b>Malayziya</b>	<b>3,5</b>	<b>10,5</b>	<b>4,1</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,1	0,0
	<i>Import</i>	3,5	10,4	4,1
	<b>Ukraina</b>	<b>9,3</b>	<b>4,4</b>	<b>5,8</b>
	<i>Eksport</i>	5,4	2,4	3,7
	<i>Import</i>	3,8	1,9	2,1
	<b>Tojikiston</b>	<b>6,6</b>	<b>7,0</b>	<b>8,1</b>
	<i>Eksport</i>	3,8	5,0	5,3
	<i>Import</i>	2,8	2,0	2,7
	<b>Eron</b>	<b>5,4</b>	<b>8,1</b>	<b>5,6</b>
	<i>Eksport</i>	2,6	2,5	3,6
	<i>Import</i>	2,9	5,6	2,0
	<b>Ispaniya</b>	<b>0,9</b>	<b>0,8</b>	<b>2,5</b>
	<i>Eksport</i>	0,6	0,7	0,1
	<i>Import</i>	0,3	0,2	2,5
	<b>Ozarbayjon</b>	<b>2,2</b>	<b>5,5</b>	<b>3,2</b>
	<i>Eksport</i>	1,7	5,2	3,0
	<i>Import</i>	0,6	0,3	0,2
	<b>Pokiston</b>	<b>2,9</b>	<b>1,3</b>	<b>4,9</b>
	<i>Eksport</i>	1,4	0,0	3,9
	<i>Import</i>	1,5	1,3	1,0
	<b>Latviya</b>	<b>3,6</b>	<b>2,4</b>	<b>2,2</b>
	<i>Eksport</i>	0,4	0,5	0,4
	<i>Import</i>	3,1	1,8	1,8
	<b>Indoneziya</b>	<b>2,9</b>	<b>1,3</b>	<b>4,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	2,9	1,3	4,4



## NAMANGAN VILOYATIDA HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-avgust, mln. AQSH doll.)\*

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>853,2</b>	<b>94,4</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	359,2	88,1	42,1
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	6,1	66,6	0,7
Kosonsoy	72,1	105,3	8,4
Namangan	38,7	105,7	4,5
Norin	32,5	79,2	3,8
Pop	49,0	220,9	5,7
To'raqo'rg'on	100,9	80,5	11,8
Uychi	54,8	93,5	6,4
Uchqo'rg'on	15,8	63,0	1,9
Chortoq	38,6	119,6	4,5
Chust	62,6	109,5	7,3
Yangiqo'rg'on	21,5	107,1	2,5

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollari



Namangan sh. 359,2

To'raqo'rg'on 100,9

Kosonsoy 72,1

Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollari



Mingbuloq 6,1


Yangiqo'rg'on 21,5

Uchqo'rg'on 15,8

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Namangan shahri 42,1 % ulush bilan 359,2 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Mingbuloq tumani 0,7 % ulush bilan 6,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)



2024- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 51,0 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga ko'paydi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar-avgust 2023- yilning mos davriga nisbatan 13,7 % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi 49,0 % ni tashkil etdi.

Namangan Viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, 435,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport 314,9 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 120,5 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



### NAMANGAN VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)


Rossiya – 34,2		Qozog'iston – 5,0	
Turkmaniston – 0,6		Qirg'iz Respublikasi – 6,7	
Tojikiston – 0,9		Belarus – 2,3	
Ozarbajjon – 0,4		Ukraina – 0,7	
Armaniston – 0,1		Moldova – 0,1	



Namangan viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori ulush Rossiya (34,2 %), Qozog'iston (5,0 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (6,7 %) davlatlari bilan qayd etildi.



## NAMANGAN VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)



Namangan viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 412,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 297,6 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 114,7 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar-avgust)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, 391,7 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 6,0 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## NAMANGAN VILOYATIDA XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>369,4</b>	<b>391,7</b>	<b>98,1</b>	<b>106,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	59,4	50,3	121,3	84,8	16,1	12,9
Ichimliklar va tamaki	2,5	1,6	294,9	62,4	0,7	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,2	6,9	96,1	132,6	1,4	1,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	3,1	48,7	574,9	0,1	0,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4,5	2,8	45,6	61,6	1,2	0,7
Sanoat tovarlari	176,3	182,7	82,0	103,6	47,7	46,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	10,5	43,5	223,5	412,6	2,9	11,1
Turli xil tayyor buyumlar	95,0	89,7	111,8	94,4	25,7	22,9
Xizmatlar	7,0	3,2	122,6	46,2	1,9	0,8
Boshqa tovarlar	8,4	7,8	-	93,5	2,3	2,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,2 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (46,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,9 %) va mashinalar va transport asbob-uskunalari (11,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**NAMANGAN VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2024- yil  
yanvar-avgust)**

 XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>50 335,0</b>	<b>84,8</b>
03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari, tirik hayvonlar	271,1	56,3
Don va ularning mahsulotlari	1 423,7	53,6
Hayvonlar uchun ozuqa	25,0	142,6
Kofe, choy, kakao, mahsulotlar va ulardan iborat mahsulotlar	182,9	85,3
Sut mahsulotlari va parranda tuxumi	2 053,0	150,0
Sabzavot va meva	46 207,0	85,3
Baliq (dengiz sut emizuvchilari emas), shaqaloqlar, mollyuskalar va suv umurtqasizlari va ulardan tayyorlanadigan tayyorgarlik	169,6	43,7
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	2,5	2,7
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	<b>1 550,1</b>	<b>62,4</b>
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Ichimliklar	1550,1	62,4
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	<b>6909,1</b>	<b>132,6</b>
Moyli urug'lar va moyli mevalar	488,5	275,1
Tabiiy kauchuk (sintetik kauchuk va regenerlangan rezina)	124,6	2216,7
Bo'limga kiritilgan 56 dan tashqari o'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	23,1	103,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan hayvon va o'simlik mahsulotlari	1349,3	243,3
To'qimachilik talchalari (tops va boshqa chizilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari (ip yoki matolarga qayta ishlanmagan)	4923,6	115,1
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>3 140,6</b>	<b>574,9</b>
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3140,6	574,9
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>	<b>19,9</b>	<b>-</b>
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	-	-
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	19,9	-
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>1 680,7</b>	<b>83,0</b>
Boyog'chi va dubil moddalar va boyoqchilar	37,6	134,7
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	397,6	66,1
Yoqilmagan shakldagi plastmassalar	24,6	61,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan kimyo materiallari va mahsulotlar	2 078,7	64,3
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumer moddalar; tualet preparatlari, jalb qiluvchi va yoyuvchi vositalar	232,5	68,6


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>18 1897,8</b>	<b>102,8</b>
Qimmatbaho, karton va qo'shimcha massa, qo'shimcha yoki karton buyumlar	100,1	69,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall buyumlar	3 900,8	94,1
Tizimdan va yog'chidan iborat buyumlar (mebeldan tashqari)	15,8	92,1
Teri, boshqa toifalarga kiritilmagan tayyor teridan ishlab chiqarilgan buyumlar	7743,3	123,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan ruda bo'lmagan qazilma mahsulotlar	1193,3	82,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan rezina buyumlar	3,1	4,1
To'qimachilik ip tishlari, matolar, boshqa toifalarga kiritilmagan tayyor buyumlar va shunday mahsulotlar	168 940,7	102,5
Cho'gin va bolat	0,7	1,3
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>43 503,9</b>	<b>412,6</b>
Aniq tarmoqlar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	161,0	14,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va uskunalar va boshqa toifalarga kiritilmagan mashinalar detallari	363,5	108,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan elektr mashinalari, apparatlari va asbob-uskunolari va ularning elektr detallari (shu jumladan, boshqa toifalarga kiritilmagan elektr maishiy asbob-uskunalarining elektrik bo'lmagan detallari)	13077,1	145,1
Energogenerator mashinalar va uskunalar	29898,1	237890,3
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>89 688,6</b>	<b>94,5</b>
Boshqa toifalarga kiritilmagan suv o'tkazish-kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalarining blok binolari, armatura va mustahkamlashlari	90,5	374,0
Yo'l buyumlari, sumkalar va shunday konteynerlar	215,9	220,0
Mebel va uning detallari, to'qimachilik buyumlari, matraslar, matraslar tiklovlari, yo'laklar va shunday mebel	177,6	14,1
Poyabzal	296,7	45,3
Kiyim-kecha buyumlari va kiyim-kecha buyumlari	878 61,0	95,3
Boshqa toifalarga kiritilmagan turli tayyor buyumlar	1046,9	139,5
<b>Boshqa tovarlar</b>	<b>7 837,5</b>	<b>93,</b>

*O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.*

2024- yilning yanvar-avgust oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,0 % ga ko'paygan.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)



2024- yilning yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Ukraina, Eron va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 88,2 % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, % da)





## NAMANGAN VILOYATIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-avgust)*

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya Federatsiyasi	194,7	241,3	100,5	123,9	1	1
Qirg'iziston	15,8	37,9	35,3	239,3	3	2
Xitoy	25,8	25,5	98,0	99,0	2	3
Qozog'iston	30,7	14,4	139,5	46,9	4	4
Turkiya	39,2	13,1	113,9	33,3	29	5
Germaniya	6,5	9,2	105,8	141,6	13	6
Polsha	9,5	5,3	142,9	56,1	11	7
Tojikiston	5,0	5,3	131,7	105,9	5	8
Turkmaniston	5,5	4,1	108,7	75,6	12	9
Pokiston	0,0	3,9	1,3	208,8M	9	10
Ukraina	2,4	3,7	44,6	153,8	6	11
Eron	2,5	3,6	97,4	143,9	7	12
Belarus	3,1	3,5	194,5	113,3	16	13
Afg'oniston	2,8	3,1	102,4	110,6	8	14
Ozarbajjon	5,2	3,0	310,7	57,6	21	15
Isroil	1,4	2,0	118,8	142,3	18	16
Belgiya	2,0	1,2	140,5	61,7	31	17
Moldova Respublikasi	3,7	1,2	275,3	31,6	15	18
Gruziya	0,5	1,1	35,3	237,4	26	19
Boshqa mamlakatlar	13,0	9,0	71,2	69,2	25	20



## NAMANGAN VILOYATIDA HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-avgust, mln.AQSH doll.)\*

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>391,7</b>	<b>106,0</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh	117,8	88,6	30,1
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	3,5	196,4	0,9
Kosonsoy	54,9	117,4	14,0
Namangan	16,7	109,1	4,3
Norin	16,2	384,0	4,1
Pop	38,6	408,7	9,9
To'raqo'rg'on	65,0	77,6	16,6
Uychi	31,3	127,2	8,0
Uchqo'rg'on	11,4	59,6	2,9
Chortoq	1,3	103,4	0,3
Chust	23,0	92,0	5,9
Yangiqo'rg'on	10,6	214,8	2,7

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Namangan shahri 30,1 % bilan 117,8 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Chortoq tumani 0,3 % bilan 1,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yilning yanvar-avgust oylarida 45 299,5 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 48,8 % ga yoki -43 165,8 tonnaga kamaydi.







Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (2,5 %), XXR (8,9 %), Rossiya (61,7 %), Qozog'iston (7,5 %) hamda Turkiya (7,7 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 38 394,1 ming. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan jami eksportdagi ulushi 9,8 % ni tashkil etdi.







## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-avgust, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p><b>Uzum</b></p> <p>1 173,6 ming. AQSH dollari</p> <p>1 035,8 tonna</p> <p> 23,8 % ↓</p>	<p><b>Piyoz</b></p> <p>2 014,1 ming. AQSH dollari</p> <p>11 770,6 tonna</p> <p> 95,2. % ↓</p>	<p><b>Pomidor</b></p> <p>5 570,3 ming. AQSH dollari</p> <p>6 259,4 tonna</p> <p> 130,6 % ↑</p>
<p><b>Xurmo</b></p> <p>189,9 ming. AQSH dollari</p> <p>295,5 tonna</p> <p> 79,6 % ↓</p>	<p><b>Uzum quritilgan</b></p> <p>654,0 ming. AQSH dollari</p> <p>300,2 tonna</p> <p> 23,2 % ↓</p>	<p><b>Karam</b></p> <p>697,1 ming. AQSH dollari</p> <p>2 003,4 tonna</p> <p> 33,4 % ↓</p>



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-avgust )

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	24 096,6	23 705,7	61,7
 XXR	4 993,0	3 398,8	8,9
 Turkiya	978,7	2 946,0	7,7
 Pokiston	4 584,6	941,0	2,5
 Ozarbayjon	542,5	1 219,8	3,2
 Boshqa davlatlar	10 104,1	6 182,8	16,0



\* qiymat ifodasidan



2024- yilning yanvar-avgust oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiyaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 61,7 % ni), bu ko'rsatkich Pokistonga eksport hajmidan 25 barobar ko'p.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024- yilning yanvar-avgust oylari yakuni bo'yicha 206,0 mln. AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 52,7 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,2 % ga ko'paydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj kiyimlar (27,5 %), tayyor to'qimachilik mahsulotlari (34,3 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 30 ta davlatiga eksport qilindi.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-avgust, ming. AQSH dollari)



206,0 (2023 yil.: 205,5)

Jami



(0)

Ip kalava



70,7 (70,7)

Tayyor to'qimachilik mahsulotlari



8,6 (8,9)

Trikotaj mato



33,3 (28,9)

Gazlamalar



56,7 (64,8)

Tayyor trikotaj kiyimlar



## NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi 461,5 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan -13,7 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (31,9 %), sanoat tovarlari (21,2 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (11,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 73,0 mln. AQSH dollariga kamaydi. Xizmatlar importi esa 1,9 mln. AQSH dollariga yetdi.



## NAMANGAN VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-avgust, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>534,5</b>	<b>461,5</b>	<b>119,8</b>	<b>86,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	91,6	90,3	141,6	98,6	17,1	19,6
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,6	0,0	25,1m	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	29,8	28,7	106,9	96,3	5,6	6,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	11,1	6,6	68,9	59,8	2,1	1,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	12,5	4,9	90,4	39,1	2,3	1,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	57,2	54,5	100,2	95,4	10,7	11,8
Sanoat tovarlari	127,7	98,1	125,8	76,8	23,9	21,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	168,4	147,3	110,2	87,4	31,5	31,9
Turli xil tayyor buyumlar	12,5	11,6	103,3	92,5	2,3	2,5
Xizmatlar	0,0	1,9	240,2	957,2m	0,0	0,4
Boshqa tovarlar	23,7	17,0	-	71,7	-	3,7



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-avgust)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>90 331,4</b>	<b>98,6</b>
03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari, tirik hayvonlar	12 819,8	463,5
Don va ularning mahsulotlari	12 955,2	43,3
Hayvonlar uchun ozuqa	8 265,0	101,2
Kofe, choy, kakao, mahsulotlar va ulardan iborat mahsulotlar	6 681,4	97,8
Sut mahsulotlari va parranda tuxumi	8 308,3	116,6
Go'sht va go'sht mahsulotlari	28 267,3	109,2
Sabzavot va meva	5 702,8	84,4
Turli oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlari	6 087,6	159,8
Baliq (dengiz sut emizuvchilari emas), shaqaloqlar, mollyuskalar va suv umurtqasizlari va ulardan tayyorlanadigan tayyorgarlik	220,1	114,1
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	1 023,8	594,9
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	<b>625,6</b>	<b>25,1m</b>
Ichimliklar	625,6	25,1m
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	<b>28 718,4</b>	<b>96,3</b>
Qo'shimcha massa va makulatura	298,8	37,6
Moyli urug'lar va moyli mevalar	2 554,7	119,3
Metall rudalari va metall lom	174,3	94,4
Tabiiy kauchuk (sintetik kauchuk va regenerlangan rezina)	364,1	40,3
Tiklash va o'rmon materiallari	19 917,2	96,7
Bo'limga kiritilgan 56 dan tashqari o'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	2 801,4	188,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan hayvon va o'simlik mahsulotlari	2 252,3	80,0
To'qimachilik talchalari (tops va boshqa chizilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari (ip yoki matolarga qayta ishlanmagan)	355,6	39,3
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>6 613,7</b>	<b>59,8</b>
Gaz, tabiiy va sun'iy	9,0	76,8
Neft, neft mahsulotlari va shunday materiallar	2 506,3	30,1
Ko'mir, koks va briкетter	4 098,5	150,6
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>	<b>4 895,5</b>	<b>39,1</b>
Ishlangan hayvonlar va o'simlik moylari va moylari; hayvon va o'simlik urug'lari; boshqa toifalarga kiritilmagan hayvon yoki o'simlik yoki o'simlik yo'llaridan tibbiy aralashmalar va preparatlar	977,8	27,4
O'simlik moylari va avgustlari, xom ashyosi, rafinlangan yoki fraktsiyalangan	3 885,5	43,5
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>54 530,3</b>	<b>95,4</b>
Boyog'chi va dubil moddalar va boyoqchilar	6 676,1	91,6
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	22 028,6	333,2
Noorganik kimyoviy moddalar	1 290,5	58,8
Organik kimyoviy moddalar	3 123,0	44,9
Yoqilmagan shakldagi plastmassalar	2 235,1	111,3
Dastlabki shakldagi plastmassalar	13 457,8	58,9
O'g'itlar (272-guruhga kiritilganlardan tashqari)	0,4	0,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan kimyo materiallari va mahsulotlar	5 214,1	103,4
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumer moddalar; tualet preparatlari, jalb qiluvchi va yoyuvchi vositalar	504,7	47,9

<b>XSST bo'limi nomi</b>	<b>Mln. AQSH dollari</b>	<b>2023- yilning mos davriga nisbatan, % da</b>
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>97 772,1</b>	<b>76,6</b>
Qimmatbaho, karton va qo'shimcha massa, qo'shimcha yoki karton buyumlar	4 686,4	62,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall buyumlar	6 804,7	73,3
Tizimdan va yog'chidan iborat buyumlar (mebeldan tashqari)	8 034,2	118,9
Teri, boshqa toifalarga kiritilmagan tayyor teridan ishlab chiqarilgan buyumlar	75,9	41,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan ruda bo'lmagan qazilma mahsulotlar	5 895,5	78,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan rezina buyumlar	1 651,5	71,1
To'qimachilik ip tishlari, matolar, boshqa toifalarga kiritilmagan tayyor buyumlar va shunday mahsulotlar	47 162,9	74,1
Rangli metallar	555,7	100,6
Cho'gin va bolat	22 905,4	76,6
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>147 161,6</b>	<b>87,3</b>
Avtomobillar (shu jumladan, havo yodgichidagi transport vositalari)	22 557,5	66,4
Elektr aloqasi, ovozni yozib olish va ovozni chiqarish apparaturasi va uskunolari	133,8	168,0
Ma'lumotlarni avtomatik ishlash uchun mas'ul mashinalar va uskunalar	2 146,7	109,1
Metallarni ishlash mashinalari	2 555,6	128,3
Aniq tarmoqlar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	70 661,0	81,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va uskunalar va boshqa toifalarga kiritilmagan mashinalar detallari	30 059,4	134,4
Boshqa transport uskunolari	73,0	101,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan elektr mashinalari, apparatlari va asbob-uskunolari va ularning elektr detallari (shu jumladan, boshqa toifalarga kiritilmagan elektr maishiy asbob-uskunalarining elektrik bo'lmagan detallari)	12 093,4	95,7
Energogenerator mashinalar va uskunalar	6 881,1	77,8
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>11 555,7</b>	<b>92,5</b>
Boshqa toifalarga kiritilmagan suv o'tkazish-kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalarining blok binolari, armatura va mustahkamlashlari	1 664,6	134,8
Yo'l buyumlari, sumkalar va shunday konteynerlar	53,8	14,2
Mebel va uning detallari, to'qimachilik buyumlari, matraslar, matraslar tiklovlari, yo'laklar va shunday mebel	412,5	134,2
Poyabzal	76,0	42,6
Kiyim-kecha buyumlari va kiyim-kecha buyumlari	398,7	68,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan turli tayyor buyumlar	5 152,9	116,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan maxsus, ilmiy va nazorat asbob-uskunolari va apparatlari	3 754,4	71,2
Fotosurat apparaturasi, uskunalar, xarajat materiallari va boshqa toifalarga kiritilmagan optik buyumlar; soat	42,9	36,8

2024- yilning yanvar-avgust natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **26,1 %** ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **2,7 %** ga kamaydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2024- yilning yanvar-avgust oyida Namangan viloyati **65** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Turkiya, Hindiston, Germaniya, Qozog'iston Belarus va Qirg'iz Respublikasi) jami importning **2/3** qismini tashkil etdi.



### VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, % da)







## NAMANGAN VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
Xitoy	174,9	172,0	103,5	98,4	1	1
Rossiya Federatsiyasi	73,4	50,9	98,5	69,3	2	2
Hindiston	15,0	47,0	201,9	312,5	3	3
Turkiya	45,7	35,4	138,2	77,4	4	4
Qozog'iston	41,4	28,3	102,8	68,4	5	5
Germaniya	28,8	19,9	202,1	68,9	6	6
Qirg'iziston	9,2	19,4	85,0	210,7	7	7
Belarus	23,8	16,1	136,4	67,8	8	8
Koreya Respublikasi	15,8	14,0	135,9	88,5	9	9
Fransiya	7,4	7,3	115,5	98,3	10	10
Italiya	9,9	7,1	342,2	71,6	11	11
Indoneziya	1,3	4,4	45,9	337,0	12	12
Avstriya	2,9	4,1	18,4m	141,4	13	13
Malayziya	10,4	4,1	292,6	39,2	14	14
Tojikiston	2,0	2,7	70,4	139,3	15	15
Polsha	15,4	2,6	207,6	17,0	16	16
Ispaniya	0,2	2,5	49,2	15,4m	17	17
Niderlandlar	2,4	2,1	170,5	90,8	19	18
Ukraina	1,9	2,1	50,9	107,5	21	19
Eron	5,6	2,0	196,2	36,3	24	20



## NAMANGAN VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-avgust, mln. AQSH doll.)

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>461,5</b>	<b>86,3</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh	241,3	87,9	52,3
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	2,6	35,7	0,6
Kosonsoy	17,2	79,2	3,7
Namangan	21,9	103,2	4,8
Norin	16,3	44,2	3,5
Pop	10,4	81,5	2,3
To'raqo'rg'on	35,9	86,4	7,8
Uychi	23,5	69,2	5,1
Uchqo'rg'on	4,5	73,8	1,0
Chortoq	37,3	120,2	8,1
Chust	39,6	123,0	8,6
Yangiqo'rg'on	10,9	72,1	2,4

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollari



Namangan sh. 241,3

To'raqo'rg'on 35,9

Chortoq 37,3

Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollari



Mingbuloq 2,6

Uchqo'rg'on 4,5

Yangiqo'rg'on 10,9

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Namangan shahri **52,3** % bilan **241,3** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Mingbuloq tumani **0,6** % bilan **2,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2024- yilning yanvar-avgust oyida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi **147,3** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **12,6** % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **31,9** % ga yetdi.



## MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-avgust)




2024- yilning yanvar-avgust oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,1** mln. AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Namangan viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi **XXR** — **83,3** mln. AQSH dollari, Turkiya — **14,8** mln. AQSH dollari Koreya — **6,2** mln AQSH dollari, Hindiston — **7,1** mln. AQSH dollari, Germaniya – **8,4** mln. AQSH dollari, kabi davlatlarga to'g'ri keldi.




## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yilning yanvar-avgust oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 98,1 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,2 % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 21,2 % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-avgust)



Sanoat mahsulotlari importida beshta yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Germaniya) jami importning 18,5 % ini tashkil qiladi, bu 85,4 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.